



HOW DO I UNDERSTAND RELIGIOUS EXTREMISM AND TERRORISM?

Ismoilova Mohigul Akramjon qizi

Fergana state university, faculty of art history
1st year student of music education

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5500274>

ARTICLE INFO

Received: 01st September 2021
Accepted: 05th September 2021
Online: 10th September 2021

KEY WORDS

extremism, terrorism,
vandalism, bigotry,
destruction, religion,
goodness, indifference,
patriotism, loyalty, family,
exhortation.

ABSTRACT

This article is written about the origins of religious extremism, terrorism, its negative consequences, measures to combat such harmful trends in our country, which today threaten the future of the younger generation. With a little care in the process of educating young people, if indifference is not allowed, it is possible to avoid not only extremism and terrorism, but also other vices that lead to negative consequences.

MEN DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMNI QANDAY TUSHUNAMAN?

Ismoilova Mohigul Akramjon qizi

Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti
Musiq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-sentabr 2021
Ma'qullandi: 05- sentabr 2021
Chop etildi: 10- sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

ektremizm, terrorism,
buzg'unchilik,
aqidaparastlik, halokat, din,
ezgulik, loqaydlik, vatanga
muhabbat, sadoqat, oila,
nasixat.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kunda yosh avlodni kelajagiga tahdid solayotgan diniy ekstremizm, terrorizm kelib chiqishi, uning salbiy oqibatlari, mamalakatimizda bu kabi zararli oqimlarga qarshi kurash chora tadbirlari haqida yozilgan. Yoshlarni tarbiyasi bilan shug'ullanish jarayonida biroq e'tiborli bo'lib, loqaydlikka yo'l qo'yilmasa nafaqat ektremizm va terrorizm, balki, boshqa salbiy oqibatlarga olib keladigan illatlardan ham holi bo'lish mumkin.

Erta tongda ko'zlarimizni ochar ekanmiz
yorug' va musaffo osmonga nazar tashlab,

jismu tanimiz, ruhimizga o'zgacha kuch
beruvchi havodan nafas olib, ota – onamiz,



yaqinlarimizning yuzlarida tabassumni ko'rib bu haqiqatdan ham eng ulug' baxt ekanini anglaymiz. Onalarning allasi, muazzinning yaratganga shukronalik bilan aytgan azonisiz tong otmaydigan bu yurtning chindan ham jannatning bir bo'lagi ekaniga zarracha gumonimiz qolmaydi. Chunki, ona allasi ham, muazzinning azoni ham faqatgina tinch makonlardangina yangraydi. Ularga eng avvalo tinchlik-osoyishtalik, qalb hotirjamligi uyg'unlashadi. Ona qalbida zarracha hadik bo'lsa alla orombaxsh yangramaydi, bola orom olmaydi. Hozirda aksariyat yoshlarimiz o'z vaqtlarini aynan internet bilan ovvora bo'lib o'tkazayotganlari hech kimga sir emas va bu jarayonni barchamiz odatiy holat deb qabul qilayotganimiz ham bor haqiqat. Nima uchun ular o'z saflariga aynan yoshlarni jalb qilishadi, chunki yoshlik hamma narsani bilishga, boshqalarga qaraganda kattaroq marralarni egallash va favqulotda qahramonliklar ko'rsatishga moil bo'lgan payt hisoblanadi. G'araz niyatli kishilar esa yoshlarning aynan shu qiziqishlaridan foydalanadilar va bu o'rinda muqaddas dinimiz tamoyillariga ham to'xtalib o'zlarini din peshvolari sifatida tanitadilar. Lekin yoshlar bir narsani bilishi kerakki din va etiqod qorin to'ydirish, birovlarining qonini to'kish uchun xizmat qilmasligi kerak. Ular hech qachon ezgulukni shior qilmaganlar va bunday qilmaydilar ham, yuragi qurum bosgan, umrida kitob ko'rmagan ammo birovlariga ilm o'rgatishni da'vo qiladiganlarning yuragida ezgulik bo'lmaydi. Bu nokaslarning qilayotgan ishlari hunrezlikdan boshqa narsa emas ekanligi ularning harakatlaridan ma'lum bo'ladi.

Diniy – ekstremistik oqimlarning g'arazli maqsadlari va yuqoridagi kabi pastkash

odamlarning xoyinligi tufayli mamlakatimiz tinchligi hamda yaxlitligiga putur yetishi mumkin bo'lgan paytlar ham bo'lganligini tarix ham, biz ham yaxshi eslaymiz. "Jahonning qator mamlakatlari tomonidan rasmiy ravishda terrorchilik tashkiloti deb tan olingan, buzg'unchilik, terrorchilikni maqsad qilgan "O'zbekiston islom harakati" guruhi jangarilari 1999 yili Toshkent shahri va viloyatida, 2000 yili Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida, 2004 yil 28-29 aprelda Toshkent va Buxoroda, 2005 yil may oyida Andijonda, shuningdek 1999, 2000 va 2006 yillari qo'shni Qirg'iziston, 2006 yili Tojikiston hududida terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etgani aniqlangan." Bo'lib o'tgan qo'poruvchilik harakatlarining moddiy oqibatlari to'la bartaraf etildi ammo bu g'alamislarni yo'q qilish chog'ida o'nlab vatan posbonlari o'z jonlarini qurbon qilishdi. Begunoh odamlarning qonlari to'kildi. Kimningdir akasi yo ukasi, kimningdir jigarbandi, kimningdir mehribon otasi o'z oilasi quchog'iga qaytmadi. Qanchadan – qancha ko'zlar yaqinlari yo'liga manguga termulib qoldi.

Din – nasihatdir, deganlar payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v). Darhaqiqat, din nasihat qilsa – saodatga, siyosat qilsa – halokatga olib boradi." Butun islom dunyosida Qur'oni karimda keyin turadigan Imom Buhoriy hazratlarining "Al-Jomi as-sahih" asarlarida diniy ksenofobiya uchun asos bo'ladigan birorta g'oya uchramaydi. Aynan mana shu jihat ham islom dinida diniy bag'ri kenglik tamoyilini ko'rsatadi va bu din har qanday g'arazli, g'ayriinsoniy, jamiyatga zarar yetkazuvchi g'oyalardan mutlaqo yiroq ekanini isbotlaydi.

Agar etibor qaratsak turli aqidaparast oqimlarga yetakchilik qilayotgan va ularni



qo'llab quvvatlayotganlarning birortasida aytarlik diniy yoki dunyoviy bilimning yo'qligini ko'ra olamiz. Muqaddas dinimizda esa ilm o'rganish har bir inson uchun farz amal ekanligi keltirib o'tilgan. Har qanday ezgu amalning boshi bu ilm hisoblanadi. Har qanday jaholat yo'lga esa ilmsizlik tufayli kirib qolish mumkin degan fikrni barcha xalqlarning buyuk allomalari va diniy ulomalari birdek qo'llab quvvatlashgan. Bilimli inson o'zi qilayotgan ishini aql tarozisiga qo'yib ko'radi, o'ziga kerakli xulosa chiqara oladi. Bunday insonlar hayoti davomida o'zi tanlagan aqidalariga sodiq qolib baxtli haot kechirishadi. Bu so'zlar nafaqat islom balki, qolgan barcha din vakillariga ham tegishlidir. Chunki dunyodagi barcha dinlar ezgulik g'oyalari asoslangan va tinchlik, do'stlik, bag'rikenglik kabi xususiyatlarga tayanib rivoj topadi.

Biz yoshlarning ilm olishimizda kitoblarning o'rni beqiyosdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan mamlakatimizda kitobxonlikni targ'ib qilish va kitob mutolaasini kuchaytirishga qaratilgan farmoyishni qabul qilinishi ma'naviy hayotimizda oldinga qo'yilgan yana bir ulkan qadam bo'ldi. Aynan ma'naviyat va kitoblar insonni yot g'oyalardan himoya qiluvchi qalqondir. Buyuk alloma Abu ali ibn Sino quyosh nuri kirmagan uyga tez-tez tabib kirib turishiga to'g'ri keladi degan ekanlar. Kitoblar esa bizning qalb quyoshlarimizdir.

Turli ko'rinishdagi ekstremizm dunyoning ko'plab mintaqalarida barqarorlikka jiddiy xavf solmoqda. Diniy ekstremizmi targ'ib qilish bunday tashkilotlar safiga terrorchilarni jalb qilish uchun mafkuraviy

vosita vazifasini o'tamoqda. Shu bois ekstremistik tashkilotlar faoliyati, birinchi navbatda, o'sib kelayotgan yosh avlodga qaratilgani ham bejiz emas.

So'nggi yillarda dunyoda narkotik moddalarni ishlab chiqarish hajmi tobora ortib, ularni iste'mol qilish miqyosi kengayib bormoqda. Narkomafiya katta iqtisodiy salohiyatga ega global kuchga aylanmoqda va uning moliyaviy imkoniyatlari dunyoning ko'plab davlatlari byudjetidan ancha yuqoridir. Xalqaro narkomafiya beqaror hududlar, yangi to'qnashuv va nizolarning paydo bo'lishi, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikning uzoq davom etishidan manfaatdordir. Har bir beqaror, notinch mamlakat esa narkobiznes va narkotrafik uchun "ishonchli bozor" hisoblanadi.

Terrorizmga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyat doirasida har tomonlama hamkorlikning global tizimini yaratish orqaligina amaliy natijalarga erishish mumkin. Prezidentimiz ta'kidlaydiki, bir haqiqat barchaga ayon bo'lishi kerak: hech bir odam, hech bir mamlakat butun insoniyatga xavf solayotgan terrorizm, radikalizm va ekstremizmni tag-tomiri bilan yo'qotish yo'lidagi kurashda chetda turmasligi zarur.

MDHning Minsk sammitida jinoyatchilik va terrorizm, narkotik vositalarning noqonuniy aylanishiga qarshi hamkorlikda kurashish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi, shuningdek, Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik konsepsiyasining qabul qilinishi, shubhasiz, Hamdo'stlikka a'zo barcha davlatlarning uzoq muddatli xavfsizlik manfaatlariga mos keladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”
2. Shavkat Mirziyoyev “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi” mavzusida anjumandagi nutqi.
3. Islom Karimov “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch!”
4. Shavkat Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”